

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA KOMPOZITSIYA USULIDA SO‘Z YASALISHI HODISASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Raximjonova Dilshodaxon Abubakir qizi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg‘ona filiali Xorijiy tillar kafedrası assistant-o‘qituvchisi

Annotatsiya. Bu maqola o‘zbek va ingliz tillarida kompozitsiya usulida so‘z yasash hodisasi, kompozitsiya usulining o‘ziga xosliklari va ikki tilda ularning o‘xshash va farqli jihatlari haqida. Bu mavzuda bir qancha mashhur tilshunoslarning izlanishlariga qaramasdan, kompozitsiya usulida yasaluvchi so‘zlar tilshunoslarning uchun tuzilishi va undagi asoslarning so‘z ma‘nosiga ta‘siri jihatdan ko‘plab baxs va munozaralarga sabab bo‘lishda davom etmoqda.

Kalit so‘zlar: so‘z yasalishi, grammatik kategoriya, kompozitsiya, sintaktik usul, o‘zak, bog‘lovchi qo‘shimchalar, mustaqil so‘zlar.

Abstract. This article is about the phenomenon of word formation in the Uzbek and English languages using the method of composition, the peculiarities of the method of composition, and their similarities and differences in the two languages. Despite the researches of several famous linguists on this topic, words made by the composition method continue to be the cause of many debates and discussions for linguists in terms of their structure and the influence of the bases in it on the meaning of the word.

Key words: word formation, grammatical category, composition, syntactic method, stem, conjunctions, independent words.

Аннотация. В данной статье речь идет о феномене словообразования в узбекском и английском языках методом композиции, особенностях метода композиции, их сходствах и различиях в двух языках. Несмотря на исследования ряда известных лингвистов по этой теме, слова, образованные методом композиции, продолжают оставаться для лингвистов причиной многих споров и дискуссий в отношении их строения и влияния содержащихся в нем основ на значение слова.

Ключевые слова: словообразование, грамматическая категория, композиция, синтаксический прием, основа, союзы, самостоятельные слова.

Ma‘lumki, til tabiatdan ijtimoiylik xususiyatiga ega bo‘lgan hodisadir, undan foydalanuvchi shaxslar bilan ajralmas bog‘liq va u jamiyat bilan birgalikda doimo o‘zgarishda bo‘lib, o‘sib, rivojlanib boradi. Lug‘at boyligimizdagi o‘zgarishlar kundalik hayotimizda deyarli barcha sohalardagi yangiliklar tufayli sodir bo‘ladi: texnika, iqtisodiyot, siyosat, ilm-fan, ijtimoiy hayot kabi sohalardagi yangi innovatsiyalar shak-shubxasiz tilda yangi iboralar yoki so‘zlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Shu sababli tilning leksik tuzilishi to‘xtovsiz biron bir o‘zgarishni boshidan o‘tkazadi. Ba‘zi so‘zlar foydalanishdan to‘xtatilib til lug‘atidan yo‘qolsa, ba‘zi yangi so‘zlar vujudga keladi va tilning lug‘at boyligini to‘ldiradi. Z.Ginzburg “So‘z yasalishi – bu leksikologiyaning mavjud so‘zlarning hosila tuzilishini va tilning yangi leksik birliklar yasovchi qoliplarini o‘rganuvchi bo‘limi,” deb

ta'kidlaydi. Tilda yangi so'zlarning vujudga kelishi boshqa tillardan yoki o'sha tildagi turli dialektlardan so'zlar o'zlashtirish, tilda mavjud bo'lgan so'zlarning semantik tuzilishini o'zgartirish yoki omonimlar yasash kabi usullar bilan amalga oshiriladi. Zamonaviy tilshunoslikda yangi so'zlar asosan 2xil usulda hosil bo'ladi:

A) Asosiy: affiksatsiya(so'zga old yoki suffiks qo'shimchalar qo'shish), kompozitsiya(ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zlarni qo'shish), konversiya (so'zni bir so'z turkumidan boshqasiga unga hech qanday o'zgartirishlar kiritmagan holda o'tkazish) kabi usullar.

B) Ikkinchi darajali:qisqartirish, tovush o'zgarishi, blending(ikki yoki undan ortiq so'zlarni aralashtirish orqali o'sha so'zlarning asl lug'aviy ma'nosiga yaqin ma'nodagi so'z yaratish) kabi usullar.

Kamida ikkita tilda o'zi mustaqil so'z shaklida qo'llaniladigan so'zlarni birlashtirish orqali yagona struktur-semantik birlikni tashkil etuvchi yangi so'z hosil qilish kompozitsiya usuli bilan so'z yasash deyiladi. Mashhur tilshunoslardan biri Lieberning aytishicha, kompozitsiya usuli so'z yasashning eng samarali usulidir. Hozirgi kunda lug'atimizda mavjud bo'lgan so'zlarning katta qismi shu usulda yaratilgan. Masalan, gulqand, tokqaychi, atirgul, jo'xoripoya, belbog', mehmondo'st, balandparvoz, erksevar, jigarrang kabi so'zlar kompozitsiya usulida yaratilgan. Bunday so'zlar mustaqil ma'noga ega bo'lgan morfemalardan tashkil topgan bo'lsa ham, yaxlitligicha bitta lug'aviy ma'noni anglatadi. Bu usulda so'z yasalishi uchun asos bo'lgan so'zlar o'zlarining dastlabki ma'nolarini qisman yoki butunlay yo'qotadi. Misol uchun, baland va parvoz so'zlari alohida leksemalar sifatida o'z lug'aviy ma'nolariga ega. Lekin ularning qo'shilishidan hosil bo'lgan balandparvoz so'zi mazkur so'zlarning dastlabki ma'nolaridan farqlanuvchi yangi ma'noni — "O'zini katta oluvchi, gerdaygan" ma'nosini bildiradi. Qo'ziqorin, qirqyamoq, oqsoch, oqsuyak, kampirchopon singari kompozitsiya usulida yasalgan so'zlar haqida ham shunday fikrni ayta olamiz.

Fromkin, Rodmanlarning ta'kidlashicha, ko'p holatlarda ingliz tilida kompozitsiya usulida yasalayotgan so'z ikkita bir xil grammatik kategoriyaga kiruvchi so'zlardan yasalsa, hosil bo'lgan so'z ham asosan o'sha kategoriyaga mansub bo'ladi. Misol uchun, noun+noun=noun tuzilishida bus stop, football, girlfriend kabilar bo'lsa, adjective+adjective=adjective shaklida bittersweet, icy-cold kabi so'zlar. Boshqa hollarda esa birikmani hosil qilayotgan so'zlar umuman boshqa kategoriyalarga mansub bo'lishi mumkin. Bunday hollarda bu turdagi murakkab so'zlarning ikkinchi qismi asos vazifasini bajaradi va kompozitsiya usulida yasalgan so'zning qaysi so'z turkumiga kirishini aniqlab beradi. Masalan, adjective+noun=noun(full moon), noun+adjective(family friendly), verb+noun=noun (pickpocket) kabilar. O'zbek tilida ham sintaktik usulda so'z yasalishi shu tartibda amalga oshiriladi. Ot+ot=ot shaklida so'z yasalishiga tuyaqush, toshko'mir so'zlari, ot+sifat=sifat shaklida esa xudobexabar, yoqavayron kabilar misol bo'la oladi.

Kompozitsiya usulida yasalgan so'zlarning xilma-xilligi ularni tasniflash jarayonida ham turfa xillikni keltirib chiqaradi. Qo'shma so'zlar kompozitsiya usuli

va soʻzlarni bir-biriga bogʻlovchi elementlarga koʻra, asoslar soni, birikma mansub boʻlgan soʻz turkumiga koʻra turlarga ajratilishi mumkin.

Ingliz tilida kompozitsiya usulida hosil boʻlgan soʻzlar yasashiga koʻra 3turga boʻlinadi.

– Birinchisi bogʻlovchi qoʻshimcha yoki harflarsiz: heartache, dog-house.

– Ikkinchi turda unli yoki undosh harflar ikki mustaqil soʻzlarni bir-biriga bogʻlaydi: handicraft, speedometer, statesman.

– Uchinchi turda esa soʻzlar bir-biriga predlog yoki bogʻlovchi soʻzlar orqali birikadi: wall-to-wall, matter-of-fact, up-to-date, up-and-coming kabilar bunga misol boʻla oladi.

Oʻzbek tilida esa kompozitsiya usulidagi soʻzlar asosan ikki koʻrinishda yasaladi.

Birinchisi hech qanday qoʻshimcha tovush yoki qoʻshimchalarsiz. Masalan: devsiyat, bugʻdoyrang, bodomqovoq, kamquvvat.

Ikkinchi usulda esa –u yoki –yu qoʻshimchalari bogʻlovchi vazifasida keladi va imlo qoidalariga koʻra bu koʻrinishdagi soʻzlar ajratib yozilib, -u(-yu) elementlaridan oldin chiziqcha qoʻyiladi: yer-u osmon, or-u nomus, kecha-yu kunduz.

Qaysi soʻz turkumi vazifasida kelishiga qarab kompozitsiya usulida yasalgan murakkab soʻzlar ingliz tilida quyidagi 5turga boʻlinadi:

1. qoʻshma otlar: sunbeam, snowstorm, washing machine.
2. qoʻshma sifatlar: sky-blue, mouth-watering, overpopulated.
3. qoʻshma olmoshlar: everybody, nothing, himself, whoever.
4. qoʻshma ravishlar: sometimes, thereafter, early on, in-house.
5. qoʻshma feʻllar: to babysit, to highlight, to cold-shoulder.

Oʻzbek tilida esa sintaktik usulda yasalgan soʻzlar soʻz turkumlari boʻyicha 4turga boʻlinadi:

1. Qoʻshma otlar: mingoyoq, muzyorar, dunyoqarash, koʻpburchak.
2. Qoʻshma sifatlar: sofdil, kamgap, ustabuzarmon, umumxalq.
3. Qoʻshma ravishlar: hech qachon, u yer, shu zahoti, bu yoq.
4. Qoʻshma feʻllar: toza qilmoq, dod-voy qilmoq, tayyor boʻlmoq.

Ingliz tilida sintaktik usulda yasalgan soʻzlar tuzilishiga koʻra quyidagi turlarga boʻlinadi:

1. Oddiy oʻzakdan tashkil topgan qoʻshma soʻzlar: film-star, heartbreak.

2. Oʻzaklardan biri yasama soʻz boʻlgan qoʻshma soʻzlar: football player, chain-smoker.

3. Asoslardan kamida bittasi qisqartma boʻlsa: H-bag(handbag), X-mas.

4. Oʻzaklardan biri qoʻshma soʻz boʻlsa: wastepaper basket, fancy-dressmaker.

5. Bundan tashqari kompozitsiyalarni birinchi qismi ikkinchi qismning qisman yoki mutlaq nusxasi bo'lgan turi ham mavjud: knock-knock, tick-tock. Ular asosan chiziqcha bilan yoziladi: itsy-bitsy, okey-dokey.

Kompozitsiya usulida yangi so'z hosil qilish konversiya usuli kabi moslashuvchanlik xususiyatiga ega bo'lmasa ham, bu usul yordamida ko'plab rang-barang so'zlar yaratish mumkin. Bundan tashqari bu usulda so'z yasash bizga butun boshli bir gap o'rniga bir dona so'z bilan o'z fikrimizni aniq va tushunarli tarzda yetkazib berish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A'zim Xo'jayev, O'zbek tilida so'z yasalishi. Toshkent, "O'qituvchi", 1989.
2. D.B.Sirojiddinova, "Brief information about the history of linguoculturology". So'nggi tadqiqotlar nazariyasi. Vol. 1. No. 4, 2022.
3. Hans Marchand, Categories and types of present day word formation. Otto-Harrassowitz, Wiesbaden, 1960.
4. Munira Ali qizi Jalolova, Gulmir Kuzibaevna Obidova, "Ingliz tilida yuklamalarni tasniflashda zamonaviy yondashuvlar", Science and Education, 2022.
5. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, Birinchi jild. Toshkent, 2000.
6. Холматов Ш, Йўлдошева М. ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА СЎЗ УРҒУСИ ДАРАЖАЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. Academic research in educational sciences. 2021.
7. www.ziyouz.com kutubxonasi